

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.05/30.12. 2019.Qx.13.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**CHORVACHILIK VA PARRANDACHILIK ILMIY-TADQIQOT  
INSTITUTI**

**TO‘LAGANOVA ZILOLA KAMOLIDDIN QIZI**

**BROYLER JO‘JALARINING O‘SISHI, RIVOJLANISHI VA GO‘SHT  
MAHSULDORLIGIGA MAHALLIY «BAVMENZAYM» BIOLOGIK  
FAOL QO‘SHIMCHASINING TA‘SIRI**

**06.02.03-Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi**

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor philosophy (PhD) on agricultural  
sciences**

**To‘laganova Zilola Kamoliddin qizi**

Broyler jo‘jalarining o‘sishi, rivojlanishi va go‘sh t mahsuldorligiga mahalliy “BAVMENZAYM” biologik faol qo‘shimchasining ta’siri..... 3

**Тулаганова Зилола Камолиддин кизи**

Влияние местной биологически активной добавки «BAVMENZAYM» на рост, развитие и мясную продуктивность бройлерных цыплят..... 21

**Tulaganova Zilola Kamoliddin kizi**

The effect of the local biologically active supplement «BAVMENZAYM» on the growth, development, and meat productivity of broiler chickens..... 41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 45

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.05/30.12. 2019.Qx.13.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**CHORVACHILIK VA PARRANDACHILIK ILMIY-TADQIQOT  
INSTITUTI**

**TO‘LAGANOVA ZILOLA KAMOLIDDIN QIZI**

**BROYLER JO‘JALARINING O‘SISHI, RIVOJLANISHI VA GO‘SHT  
MAHSULDORLIGIGA MAHALLIY «BAVMENZAYM» BIOLOGIK  
FAOL QO‘SHIMCHASINING TA‘SIRI**

**06.02.03-Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi**

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida 2025.2.PhD/Qx981 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Toshkent davlat agrar universiteti (www.tdau.uz), Respublika ilmiy qishloq xo'jaligi kutubxonasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi hamda «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Axmedova Zaxro Rahmatovna  
biologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** Ro'ziboyev Nuraddin Raximovich  
qishloq xo'jalik fanlari doktori (DSc), professor


Isamuxammedov Solix Shukurovich  
biologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** Ipakchilik ilmiy-tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi falsafa doktori (PhD) ilmiy darajalar beruvchi PhD. 05/30.12.2019.Qx.13.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «13» 08 kuni soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel: (99871) 260-48-00, faks: (99871) 260-38-60, e-mail: tuag-info@edu.uz. Toshkent davlat agrar universiteti ma'muriy binosi, 2-qavat, anjumanlar zali).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 553175 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko'chasi, 2-uy. ToshDAU ARM binosi 1-qavat, tel: (99871) 260-50-43.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «20» iyul kuni tarqatildi.  
(2025 yil «24» iyuldagi № 35-raqamli reyestr bayonnomasi).



**Sh.R. Umarov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
q.x.f.d., professor

**Sh.A. Abdurasulov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
kotibi, y.f.d. (DSc), dotsent

**Q.J. Shakirov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, q.x.f.d.,  
professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Dunyo miqyosida parrandachilik sohasi oziq-ovqat sanoatiga mahsulot yetkazib beruvchi eng muhim tarmoqlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Aholi sonining tez oshib borishi, go'sht mahsulotlariga bo'lgan talabning ortgani va ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish ehtiyoji parrandachilik sohasining jadal rivojlanishini taqozo etmoqda. «...dunyo bo'yicha tovuq go'shti ishlab chiqarish hajmi 104 million tonnadan oshganligi e'tirof etilgan holda broyler go'shti yetishtirish bo'yicha AQSh, Xitoy, Braziliya, Hindiston va Rossiya kabi davlatlar yetakchi o'rinni egallab kelmoqda»<sup>1</sup>. Parrandachilikda sifatli go'sht ishlab chiqarishni yanada oshirish uchun zamonaviy biotexnologiyalarni joriy etish bilan bir qatorda tabiiy va xavfsiz biologik qo'shimchalardan foydalanish, intensiv texnologiyalarga asoslangan fermer xo'jaliklarini kengaytirish dolzarb vazifalardan biriga aylangan.

Parrandachilik rivojlangan yirik davlatlarda yangi innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda parranda tuxumi va go'sht mahsulotlari yetishtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari orasida Rossiya Federatsiyasi parrandachilik go'shti ishlab chiqarish bo'yicha birinchi o'rinni egallab turibdi. 2024 yil hisobiga ko'ra Rossiyada 5 mln. tonnadan ortiq parranda go'shti ishlab chiqarilgan bo'lib, bu MDH davlatlari orasida ishlab chiqarishning yarmidan ko'pini tashkil etadi. Go'sht yo'nalishidagi parrandachilikda antibiotiklar va turli kimyoviy vositalar o'rniga xavfsiz va samarali biologik faol moddalarni yaratish (BFM) va ulardan foydalanish ustuvor vazifalardan biriga aylangan. Biologik faol qo'shimchalar parrandachilik mahsulotlarining ekologik xavfsizligini ta'minlashi, inson salomatligi uchun foydaliligi hamda iqtisodiy jihatdan yuqori samaradorligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda yildan-yilga parrandachilik sohasiga bo'lgan e'tiborning oshib borishi natijasida tarmoqda ijobiy o'zgarishlar kuzatilib, «...bugungi kunda yillik parranda go'shti ishlab chiqarish 600 ming tonnani tashkil qilmoqda bu aholi jon boshiga taqsimlanganda o'rtacha 1 kishiga 14 kg-ga to'g'ri kelib, iste'mol qilish talabini qondirilishi 77%-ni tashkil qilmoqda»<sup>2</sup>. Respublikamizda parranda go'sht mahsulotlarning ulgurji narxi o'rtacha 23 000 so'mdan 50 000 so'mgacha bo'lib, aholini parranda go'shti mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirib kelmoqda. «...2025-yilda parranda go'shti va parranda tuxumlari yetishtirish hajmlarini 1 000,0 ming tonnaga va 10 500,0 mln donaga yetkazish»<sup>3</sup> vazifalari belgilangan. Hozirgi kunda parrandalar bosh sonini oshirish, parranda boqishda yangi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, ozuqa bazasini mustahkamlash, olinayotgan mahsulotlar sifatini oshirish shuningdek, aholining parrandachilik mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida, biologik qo'shimcha berilgan holda oziqlantirish va sug'orish tizimini

<sup>1</sup> ChatGPT, OpenAI, <https://chat.openai.com>

<sup>2</sup> <https://poultry.uz/uz>

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 30 yanvardagi "Chorvachilik va parrandachilikni qo'llab-quvvatlash, sohada yuqori qo'shilgan qiymat yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-34-son qarori.

to'g'ri yo'lga qo'yish orqali, jo'jalarning o'sishi, rivojlanishi va go'sht mahsuldorligini oshirish bo'yicha olib boriladigan ishlar hajmini oshirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23-oktyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5853 son farmoni, 2021 yil 14-iyundagi «Parrandachilikni rivojlantirish va tarmoq oзуqа bazasini mustahkamlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-5146 son qarorida va tarmoqqa doir boshqa normativ, huquqiy hujjatlarda belgilangan topshiriqlar ijrosini bajarishda ushbu dissertatsiya tadqiqotlari muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi beotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Parrandachilikda go'sht mahsuldorligini oshirish hamda parrandalarning o'sish sur'atini jadallashtirishda biologik faol qo'shimchalarning ham ahamiyati katta. Probiotik va ferment qo'shimchalarning parrandalar organizmiga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan xalqaro tadqiqotlar orasida Shahid Raza, Muhammad Ashraf, Talat Naseer, Farooq Latif, K.Kiseleva, Z.Dzidzoyeva, A.Sharipova, A.Kazakov, O.Konisheva, O.Shamin va S.Kojevnikov kabi olimlarning ilmiy ishlarida biologik faol moddalarning parrandalarning o'sishi, rivojlanishi hamda mahsuldorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Parrandachilik sohasida mamlakatimiz olimlari Y.Ribina, S.Azimov, D.Azimov, A.Kalashnikov hamda K.Karibayevlar tomonidan parranda zotlari, parvarishlash texnologiyalari va oziqlantirish tizimlarida amalga oshirgan tadqiqotlari soha rivojiga katta hissa qo'shgan. Antibiotik, probiotik va fermentlarning qo'llanilishi yuzasidan esa A.Rahimov, O.Rasulov, G.Qutlieva, Z.Axmedova va M.Yaxyayevalar tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mahalliy «BAVMENZAYM» biologik faol qo'shimchasi hali yetarlicha o'rganilmagan. Shu bois uning broyler jo'jalari uchun samaradorligi, turli yoshdagi oziqlantirish bosqichlarida qo'llanilishi va parrandalar organizmiga ta'siri bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar zarur. Ushbu tadqiqot biologik faol qo'shimchasining jo'jalar o'sishi, rivojlanishi va go'sht mahsuldorligiga ta'sirini o'rganishda va uni ishlab chiqarishga joriy etishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot institutining ilmiy-tadqiqot rejalari muvofiq 2021 yil 4-sonli bayonnomasi asosida tasdiqlangan «Parrandachilikda go'sht mahsuldorligini oshirish uchun oзуqaviy qo'shimcha «BAVMENZAYM» biologik faol qo'shimchasidan foydalanish texnologiyasini ishlab chiqish» mavzusi doirasida bajarilgan (2021-2023-yy.).

**Tadqiqotning maqsadi** go'sht yo'nalishidagi broyler jo'jalarning o'sishi, rivojlanishi va go'sht mahsuldorligiga «BAVMENZAYM» biologik faol qo'shimchasining ta'sirini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

jo'jaxona mikroiklimi va jo'jalarni saqlash sharoitlarini o'rganish;  
jo'jalarini oziqlantirish, sug'orish va mahalliy «BAVMENZAYM» biologik faol qo'shimchasini berish;  
broyler jo'jalarining o'sish va rivojlanishi hamda hayotchanligi ko'rsatkichlarini o'rganish;  
«BAVMENZAYM» qo'shimchasini yosh davrlari bo'yicha jo'jalar mahsuldorligiga ta'sirini o'rganish;  
broyler jo'janing gematologik ko'rsatkichlarini aniqlash;  
broyler jo'ja go'shtini kimyoviy tahlil qilish va go'shti sifatini baholash;  
broyler go'shti yetishtirishda «BAVMENZAYM» biologik faol qo'shimchasi ta'sirining iqtisodiy samaradorligini aniqlash va ishlab chiqarishga amaliy tavsiya berish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida go'sht yo'nalishidagi broyler jo'jalari va «BAVMENZAYM» biologik faol qo'shimchasi tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** «BAVMENZAYM» biologik faol qo'shimchasining broyler jo'jalari o'sishi, rivojlanishi va go'sht mahsuldorligiga ta'sirini o'rganish hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Ilmiy tadqiqotlarni bajarilishida broyler jo'jalarining 1 kg tirik vazn olishi uchun sarflangan ozuqa miqdori FCR (Feed Conversion Ratio) metodikasida hisoblandi. Jo'jalarni saqlash, o'sish va rivojlanishi, hayotchanligi hamda tirik vazni zootexniyada umumqabul qilingan usullar yordamida o'rganildi. «BAVMENZAYM» tarkibi mikotoksinlarga «RIDASCREEN» ferment tashxis (IFA) usulida tekshirildi. Go'shtning kimyoviy tarkibi ISO 936: 1998, GOCT 23042-2015; GOCT 31027-2002, ISO 1442-2023 davlat standartlari asosida aniqlandi. Jo'ja qon tahlili «MINDRAY BC-20s» qon tahlili apparati yordamida o'rganildi. Go'sht namunalari sifatini organoleptik baholash (degustatsiya) GOST 9959-2015 bo'yicha amalga oshirildi. Tadqiqotlarning iqtisodiy samaradorligi ROS (Return on Sales) usulida aniqlandi. Tadqiqot natijalarining biometrik qayta ishlovi Merkureva E.K. (1983) uslubi yordamida bajarildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk bor O'zbekiston parrandachilik sanoatida broyler jo'jalarini mahsuldorligini oshirish va sifatli parhez bop go'sht ishlab chiqarishda 10 %-li tabiiy xavfsiz «BAVMENZAYM» biologik faol qo'shimchidan foydalanish samarali ekanligi isbotlandi;

broyler jo'jalarni 15-25 kunlik yosh davridagi «Rost» ozuqa yemi bilan oziqlantirish bosqichida biologik faol qo'shimchani suvga aralashtirib berish hisobidan ularni tirik vaznini 2450 grammga yetishi va nazorat guruhidagi tengqurlariga nisbatan 240 gramm (10,85 %) ga yuqori ko'rsatkichni namoyon qilishi asoslangan;

broyler jo'jalarga tabiiy xavfsiz «BAVMENZAYM» biologik faol qo'shimcha qo'llash ijobiy ta'sir ko'rsatishi natijasida jo'jalarning mutlaq o'sishi 2401 grammni, kunlik tirik vazni o'sishi 69 grammni, nisbiy o'sishi 192,2 % ni tashkil qilishi aniqlangan;

broyler jo'jalarni hayotchanligini oshirish va mortalitetni (nobud bo'lish darajasi) kamaytirishga «BAVMENZAYM» biologik faol qo'shimchani ta'siri aniqlanib, hayotchanlik darajasi 100 % bo'lishi isbotlangan;

broyler jo'jalarni go'sht uchun boqish davomiyligi 35 kundan oshirmaslik va «BAVMENZAYM» biologik faol qo'shimchani 10 %-li eritmasini qo'llash hisobidan iqtisodiy samaradorligi 41,1 % ni tashkil qilishi isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat: «BAVMENZAYM» biologik faol qo'shimchasi bilan broyler jo'jalarni oziqlantirishning ilmiy asoslari va amaliy usullari ishlab chiqilgan;

parranda go'shtini ishlab chiqarish salmog'ini oshirishda broyler jo'jalarini boqish davomiyligini odatdagi 40-45 kundan 35 kungacha qisqartirish hamda «Rost» yemi bilan oziqlantirish bosqichida «BAVMENZAYM» biologik faol qo'shimchasini 10 %-li eritmasi bilan oziqlantirish hisobidan iqtisodiy samaradorlikka erishilgan;

broyler jo'jalariga biologik faol qo'shimcha berish usullari OOO «Imkon Broiler», «SHOVVOSSOY PARRANDA» va «KOMPAKT POULTRY» parrandachilik xo'jaliklarida joriy etilgan;

«BAVMENZAYM» biologik faol qo'shimchasining 10 %-li eritmasi bilan oziqlantirish hisobidan broyler jo'jalarini hayotchanligi 100 % ta'minlandi va yuqori sifatli xushta'm go'sht ishlab chiqarish usuli ishlab chiqilgan;

sanoat asosida broyler jo'jalarini yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirishning ilmiy-amaliy asoslari ishlab chiqildi va so'yim chiqimi 4,8 % ga oshishi ta'minlandi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ilmiy tadqiqotlarda olingan barcha ko'rsatkichlar tahlilida zamonaviy uslub va vositalaridan foydalanganligi, maxsus tajribalar natijalariga hamda yuritilgan birlamchi hujjatlarga, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi va Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti aprobatsiya komissiyasi tomonidan ijobiy baho berilganligi, ma'lumotlarga variatsion statistika usullarida ishlov berilganligi, ishonchlilik mezonlarining aniqlanganligi, tadqiqot natijalari joriy etish dalolatnomalari bilan tasdiqlanganligi hamda xorijiy va OAK etirof etgan nashrlarda chop qilinganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, broyler jo'jalarini saqlash sharoitlari va oziqlantirish bosqichlarini hisobga olgan holda, biologik faol qo'shimcha ta'sirida ularning tirik vaznining ortishi va rivojlanishi o'rganildi hamda bu boradagi ilmiy bilimlar boyitildi, broyler go'sht mahsuldorligini oshirish va sifatli parranda go'shti yetishtirishda biologik faol qo'shimcha «BAVMENZAYM» dan foydalanish ta'siri ilmiy asoslanib, broyler jo'jalarining o'sish jarayonlarini doimiy nazorat qilish orqali ularning o'sishini jadallashtirish,

qo'shimcha kimyoviy dori vositalaridan foydalanmagan holda sifatli go'sht ishlab chiqarish hajmini oshirish mumkinligi bilan baholanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundanki, go'sht yo'nalishidagi broyler jo'jalarda «BAVMENZAYM» biologik faol qo'shimchadan foydalanish orqali go'sht mahsuldorligini oshirishning samarali usullari ishlab chiqilganligi, bu qo'shimchani amaliyotga tatbiq etish natijasida broyler go'shtini yetishtirish hajmini ko'paytirish hamda parrandachilik sohasida barqaror iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Broyler jo'jalarini o'sishi, rivojlanishi hamda go'sht mahsuldorligini oshirish maqsadida «BAVMENZAYM» biologik faol qo'shimchasidan foydalanish samaradorligini o'rganish bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqot natijalari asosida:

broyler jo'jalarining go'sht mahsuldorligini oshirish uchun «BAVMENZAYM» biopereparatidan foydalanish samaradorligi OOO «Imkon Broiler» parrandachilik xo'jaligining 300 bosh jo'jalarini 3 bosqichli «Start», «Rost» va «Finish» oziqlantirish davrlarida qo'llanildi. (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025 yil 28 aprel oyidagi 02/23-288-son ma'lumotnomasi). Natijada eng yuqori ko'rsatkichi «Rost» davrida bo'lgan. Bu davrda olingan jami daromad tajriba guruhida 3 063 ming so'mni, sof foyda 1 260 ming so'mni va iqtisodiy samaradorlik (rentabellik) 41,1 % ni tashkil etgan;

broyler jo'jalarining go'sht mahsuldorligini oshirish borasida olib borilgan tadqiqotlar «SHOVVOSSOY PARRANDA» xo'jaligida 400 bosh «Ross 308» broyler jo'jalariga «BAVMENZAYM» biopereparati qo'llanildi, (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025 yil 28 aprel oyidagi 02/23-288-son ma'lumotnomasi). Natijada jami daromad 22 905 ming so'mni, olingan sof foyda 8 863 ming so'mni tashkil qildi. Rentabellik 38,6 % ni tashkil qilgan;

broyler jo'jalarining go'sht mahsuldorligini oshirishda jo'jalarga «BAVMENZAYM» biopereparatini 10 kun mobaynida «KOMPAKT POULTRY» MCHJ parrandachilik xo'jaligida qo'llanilgan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025 yil 28 aprel oyidagi 02/23-288-son ma'lumotnomasi). Natijada olingan jami daromad 28 692 ming so'm, sof foyda tegishli 11 191 ming so'm hamda rentabellik darajasi 39,0 % bo'lgan. Ushbu natijalar «BAVMENZAYM» biologik faol qo'shimchasi broyler jo'jalarining go'sht mahsuldorligini oshirishda samarali ekanligini isbotlab, uni parrandachilik xo'jaliklari amaliyotiga keng joriy etish imkoniyatini yaratadi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ilmiy-tadqiqot ishlari Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot institutining (2021-2023-yy.) va O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi komissiyalarida hamda tadqiqotlar natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o'tkazilgan va ijobiy baholangan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta, shu jumladan xalqaro va respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamida 4 ta, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta, shundan 2 tasi xorijiy nashrlarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosalar, ishlab chiqarishga tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 110 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya ishining dolzarbligi va zarurati ilmiy jihatdan asoslangan bo'lib, adabiyotlar sharhi yoritilgan uning maqsadi, vazifalari, obyekti hamda predmeti tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, dissertatsiya bajargan muassasaning ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va ularning ishonchliligi, ilmiy-amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarlarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinishi hamda dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi to'g'risida ma'lumotlar bayon etilgan.

**Dissertatsiyaning Adabiyotlar sharhi** deb nomlangan I bobida sanoat asosida parranda go'shti ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyalari, qishloq xo'jalik parrandalarini hayotchanligi, o'sish va rivojlanishiga biologik qo'shimchalarning ta'siri, shuningdek, broyler jo'jalarning go'sht mahsuldorligini oshirishda biologik faol moddalardan foydalanishning samaradorligi bo'yicha mahalliy hamda xorijiy adabiyotlar o'rganilib, ilmiy tahlil qilingan.

**Dissertatsiyaning "Tadqiqotlar o'tkazish joyi va uslublari"** deb nomlangan II bobida, tadqiqotlarning o'tkazish joyi, tajriba tasviri, tadqiqotlarda qo'llaniladigan uslublar yoritilgan. Ilmiy tadqiqot ishlari 2021–2023-yillarda Toshkent viloyati Qibray tumanida joylashgan OOO "Imkon Broiler" parrandachilik xo'jaligida olib borilgan. Tadqiqot obyekti sifatida go'sht yo'nalishidagi broyler jo'jalari va «BAVMENZAYM» biologik faol qo'shimchasi tanlab olingan.

**Dissertatsiyaning "Broyler jo'jalarini saqlash va boqish sharoitlari. Biologik faol qo'shimchasini jo'jalarga berish tartibi"** nomli III bobida quyidagilar yoritilgan. Broyler jo'jalari saqlanadigan binoning mikroiklim sharoitlari. Broyler jo'jalarini oziqlantirish va sug'orish me'yori hamda biopreparatni jo'jalarga turli yosh davrlarida qo'llash tartibi va boqish davomiyligi o'rganilgan.

Jo'jalar uchun qulay mikroiklim yaratish ularning o'sishi va rivojlanishini ta'minlovchi eng muhim omillardandir. To'g'ri harorat, namlik, yorug'lik va havo almashinuvi sharoitlari jo'jalar uchun optimal muhitni yaratishga yordam beradi. Dastlabki haftalarda jo'jalarning haroratga bo'lgan talabi yuqori bo'lib, keyinchalik bosqichma-bosqich pasaytirib borildi. Yorug'lik rejasining to'g'ri tartibga solinishi jo'jalarning faolligini oshirib, fiziologik rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Broyler jo'jalari uchun 1 kg tana vazni ortishi uchun sarflangan ozuqa miqdori FCR (Feed Conversion Ratio) - ozuqani o'zlashtirish koeffitsiyenti yordamida hisoblandi. Ushbu ko'rsatkich jo'jalarning oziqa samaradorligi va parvarish sharoitlarining to'g'ri tashkil qilingani bilan bog'liq bo'lib, broylerlarda odatda FCR 1,6-1,8 atrofida bo'ladi. Ya'ni, 1 kg vazn olish uchun 1,6-1,8 kg ozuqa talab etiladi. Bu ko'rsatkich qanchalik past bo'lsa, jo'jalarning yemdan foydalanish samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi, bu xo'jalik uchun iqtisodiy jihatdan foydali bo'lishini ta'minladi.

Tajribalarimiz natijasida har bir oziqlantirish davrida 1 kg semirish uchun qancha ozuqa sarf bo'lgani hisoblab chiqildi. Bu 1-jadvalda ko'rsatildi.

### 1-jadval

#### Broyler jo'jalari 1 kg semirishi uchun ozuqa sarfi, kg (tajribalar davomida)


1 kunlikdan 35 kunlikgacha				
	Jami ozuqa sarfi, kg	Jo'ja soni, ta	Jami tirik vazni, kg	1 kg semirish uchun sarflangan ozuqa, kg
<b>I tajriba (2022yil)</b>				
<b>Nazorat</b>	158,5	47	102,7	1,5
<b>Tajriba</b>	165,2	49	112	1,4
<b>II tajriba (2023 yil)</b>				
<b>Nazorat</b>	161,8	48	106	1,5
<b>Tajriba</b>	168,6	50	122,5	1,3
<b>III tajriba (2023 yil)</b>				
<b>Nazorat</b>	161,8	48	107,7	1,5
<b>Tajriba</b>	165,2	49	113,5	1,4

Tahlil natijalaridan ko'rinib turibdiki, biopreparat «Start» yem bosqichida berilganda nazorat guruhidagi jo'jalarning 1 kg semirishi uchun 1,5 kg yem sarflangan, tajriba guruhida esa bu ko'rsatkich 1,4 kg ni tashkil etgan. Ya'ni, nazorat guruhida ozuqa sarfi 0,1 kg ko'proq bo'lib, tajriba guruhidagi jo'jalar yemdan samaraliroq foydalandi. «Rost» yem bosqichida biologik faol qo'shimcha qo'llanganda, nazorat guruhidagi jo'jalarning 1 kg tirik vazn olish uchun 1,5 kg ozuqa sarflangani, tajriba guruhida esa bu ko'rsatkich 1,3 kg ni tashkil qilgani kuzatildi. Bu esa tajriba guruhidagi jo'jalar nazorat guruhiga nisbatan 0,2 kg kamroq yem iste'mol qilib, o'ziga xos oziqlanish samaradorligini namoyon etganini ko'rsatdi. «Finish» yem bosqichida biologik faol qo'shimcha qo'llanganda 1 kg semirish uchun tajriba guruhida 1,4 kg, nazorat guruhi jo'jalari esa 1,5 kg yem iste'mol qilgan. Shunday qilib, «Finish» yem bosqichida ham tajriba guruhi nazorat guruhiga qaraganda 0,1 kg kamroq ozuqa sarfladi.

Ushbu ko'rsatkichlardan jo'jalarning yemdan foydalanish samaradorligi bo'yicha eng yaxshi natija «Rost» yem bosqichida kuzatildi. Ya'ni, biologik faol qo'shimcha aynan «Rost» yem berish davrida qo'llanganda 1 kg vazn olish uchun eng kam ozuqa sarflandi.

1 bosh broyler jo'jasi uchun 1 kunlik yoshida 25 ml suv 5 kunlikda esa 50 ml suv iste'mol qildi. 31 kunlik yoshida 1 ta jo'ja uchun 305 ml suv berildi, 35 kunlik bo'lganda suv miqdori 342 ml ni tashkil qildi.

Tadqiqotlarimizning eng muhim jihati hisoblangan broyler jo'jalarining o'sishi, rivojlanishi va go'sht mahsulдорligini oshirishda biologik xavfsiz ozuqaviy qo'shimcha «BAVMENZAYM»dan foydalanish ta'sirini o'rganish hisoblanadi. Bunda jo'jalarni har bir oziqlantirish davrlarida ya'ni davomiyliги xar 10 kunlikni tashkil qilgan «Start», «Rost» va «Finish» yem bosqichlarida 1 litr suvga 100 ml miqdorida biologik faol qo'shimcha qo'shib berildi.




**1-rasm. Tajirba guruhi jo‘jalariga «BAVMENZAYM» biologik faol qo‘shimchani suvga qo‘shib berish miqdori, l**

1-rasmdan ko‘rish mumkinki, «Start» yem bosqichida 5 kunlikdan 15 kunlik yoshigacha 4,84 l, «Rost» yem bosqichida 15 kunlikdan 25 kunlikkacha 10,43 l va «Finish» yem bosqichida 25 kunlikdan 35 kunlikkacha 15,84 l miqdorida «BAVMENZAYM» biologik faol qo‘shimcha sarf etildi.

Dissertatsiyaning “**Broyler jo‘jalarning o‘shishi, rivojlanishi, hayotchangligi va mahsuldorligiga «BAVMENZAYM» biologik faol qo‘shimchasini ta’siri**” nomli IV bobida «BAVMENZAYM» biologik faol qo‘shimchasini qo‘llaganda broyler jo‘jalarning o‘shishi, rivojlanishi va hayotchanligi, broyler jo‘jalarning qonining kimyoviy tahlili hamda jo‘ja go’sht mahsuldorligi va broyler jo‘jalarni nazorat so‘yim natijalari yoritilgan.

Biopreparatni berishdan maqsad har bir davrda o‘shish jarayonini tezlatishi, immun tizimini mustahkamlash va optimal rivojlanishni ta’minlash.

**Tajirba guruhlari orasida tirik vazn ortib ko‘rsatkichlari**



**2-rasm. Tadqiqotlar davomida biologik faol qo‘shimcha berilgan tajirba guruhi jo‘jalarining o‘rtacha tirik vazn dinamikasi, g**

2-rasmda biologik faol qo‘shimcha barcha oziqlantirish bosqichlarida berilganda, tajirba guruhi jo‘jalarining o‘rtacha tirik vaznini 15, 25 va 35 kunlikda

o'lgan ko'rsatkichlari o'rganildi. Bunda «Start» yem bosqichida jo'jalar 15 kunlikda 569,6 g, «Rost» yem bosqichida 515,1 g, «Finish» yem bosqichida 520,9 g tirik vaznga ega bo'lgan. Jo'jalar 25 kunlik yoshida «Start» yem bosqichida 1289,5 g, «Rost» yem bosqichida 1480,2 g, «Finish» yem bosqichida esa 1135,3 g o'rtacha tirik vazn olgan. 35 kunlik jo'jalar tortilganda «Start» yem bosqichida 2282,8 g, «Rost» yem bosqichida 2450,2 g va «Finish» yem bosqichida 2315,3 g o'rtacha tirik vaznga ega bo'lgani aniqlandi.

15 kunlik jo'jalarda startdan «Rost» yem bosqichiga borib, vaznning pasayishi va «Finish» yem bosqichida ozgina o'sish kuzatilgan. 25 kunlik jo'jalarda «Start» yem bosqichidan «Rost» yem bosqichiga borib, vaznning 14,83 % ga o'sishi, ammo «Finish» yem bosqichida 23,31% ga pasayish bo'lgan. 35 kunlik jo'jalarda «Start» yem bosqichidan «Rost» yem bosqichiga borib, vaznning 7,32 % ga o'sishi, lekin «Finish» yem bosqichida 5,49 % ga kamayishi kuzatildi.

Biologik faol qo'shimcha ta'siri o'sish jarayonining birinchi va ikkinchi bosqichlarida «Start» va «Rost»da aniq namoyon bo'ldi, bunda vazn oshishi va organizmning rivojlanishi sezilarli darajada tezlashdi. Ammo «Finish» yem bosqichida o'sish sekinlashdi, bu tabiiy jarayonlarning oxiriga yaqinlashganini ko'rsatadi. «Start va «Rost» yem bosqichi orasidagi o'zgarishlar biologik faol qo'shimcha samarali ishlashini tasdiqladi.

«BAVMENZAYM»ning qo'llanilishi jo'jalarda o'sish jarayonlarini tezlashtirishga va yaxshilashga yordam berdi. U parrandalarning ovqat hazm qilish jarayonini yaxshilab, ozuqaning maksimal darajada o'zlashtirilishiga yordam berdi.

Olib borilgan tajribalarimiz yakunida broyler jo'jalarning saqlanishi va mortalitet (nobud bo'lish darajasi) foiz ko'rsatkichini aniqladik buni 2-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkin.

## 2-jadval

### Tajribalar davomida biologik faol qo'shimcha berib boqilganda broyler jo'jalarning saqlanishi va mortalitet (nobud bo'lish darajasi) ko'rsatkichi, %

Kunlik yoshi,	I tajriba		II tajriba		III tajriba	
	(n=50)	(n=50)	(n=50)	(n=50)	(n=50)	(n=50)
	Nazorat guruhida jo'ja soni, ta	Tajriba guruhida jo'ja soni, ta	Nazorat guruhida jo'ja soni, ta	Tajriba guruhida jo'ja soni, ta	Nazorat guruhida jo'ja soni, ta	Tajriba guruhida jo'ja soni, ta
1-5	-	1	-	-	-	-
6-15	1	-	-	-	1	1
16-25	1	-	1	-	-	-
26-35	1	-	1	-	1	-
Jami nobud bo'lgan jo'ja soni, ta	3	1	2	-	2	1
Jami qolgan jo'ja soni, ta	47	49	48	50	48	49
Mortalitet % i	6	2	4	0	4	2
Saqlanish % i	94	98	96	100	96	98

Jadval ma'lumotlaridan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, «Start» yem berish bosqichida olib borilgan tadqiqotlarda nazorat guruhida 50 ta jo'jadan 3 tasi nobud bo'ldi va mortaliteti 6 % ni, tirik qolgan jo'ja 47 ta bo'lib, saqlanish foizi 94 % ni tashkil etdi. Biologik faol qo'shimcha berilgan tajriba guruhida esa 50 ta jo'jadan 1 tasi nobud bo'ldi va mortaliteti 2 % ni, 49 ta tirik qolgan jo'jalar saqlanish foizi 98 % ni tashkil qildi. «Rost» yem bosqichi tadqiqotlarda nazorat guruhida 50 tadan 2 ta jo'ja nobud bo'lgan mortaliteti 4 % ni, 48 ta qolgan jo'jalarning saqlanish foizi 96 % ni tashkil etdi. Tajriba guruhiga biologik faol qo'shimcha berilganda umuman nobud bo'lish holati kuzatilmadi va saqlanish foizi 100 % bo'ldi. Finish yem berish bosqichida o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida nazorat guruhida 50 ta jo'jadan 2 ta jo'ja nobud bo'lgan va mortaliteti 4 % ni tashkil qilgan bo'lsa, 48 ta jo'janing saqlanish foizi 96 % ni tashkil etdi. Biopreparat 25 kunligidan berilgan tajriba guruhida 50 ta jo'jadan 1 tasi nobud bo'ldi va 2 % mortalitetni tashkil qildi. Saqlanish foizi 49 ta jo'jada 98 % ni tashkil etdi. Ko'rsatkichlardan ko'rinib turibdiki hayotchanglik «Rost» yem bosqichida biologik faol qo'shimcha berib boqilganda eng yuqori darajada bo'ldi.

Tadqiqotlar bo'yicha har bir davrlar bo'yicha 35 kunlikda nazorat va tajriba guruhi jo'jalaridan 5 tadan jo'ja ajratib ulardan qon namunalari olib, "MINDRAY BC-20s" qon tahlili aparatida tekshirildi. Olingan natijalar 3-jadvalda keltirildi.

**3-jadval**

**Tadqiqotlar davomida 35 kunlik broyler jo'jalarining qon tahlili natijalari**

Davrlar Guruhlar Ko'rsatkichlar	I tajriba				II tajriba				III tajriba			
	Nazorat (n=5) X±Sx	Cv, %	Tajriba (n=5) X±Sx	Cv, %	Nazorat (n=5) X±Sx	Cv, %	Tajriba (n=5) X±Sx	Cv, %	Nazorat (n=5) X±Sx	Cv, %	Tajriba (n=5) X±Sx	Cv, %
Gemoglobin, g/dL HGB (9-12)	10,6±0,1	1,8	11,9±0,07 ***	1,2	10,4±0,12	1,1	12±0,03 ***	0,5	10,1±0,16	1,6	12,02±0,02 ***	0,4
Eritrotsit 10 <sup>12</sup> /L RBC (2.5-3.0)	2,4±0,07	6,2	2,5±0,03	3,0	2,6±0,07	2,8	2,5±0,02	2	2,3±0,06	5,2	2,6±0,03	1,0
Leykotsit 10 <sup>9</sup> /L WBC (20-30)	26±0,43	3,3	23±0,30	1,3	28,8±0,37	1,2	24±0,5	4,1	30±0,27	1,8	25,2±0,29	2,3
Trombotsit 10 <sup>9</sup> /L PLT (20-30)	24,4±0,66	5,4	23,2±0,33	2,8	26±0,35	2,6	24±0,35	1,4	27±0,33	2,4	25±0,5	4
Gemotokrit, % HCT (30-40)	31,6±0,53	3,8	35±0,41*	2,3	34±0,22	1,3	32±0,4	1,1	33,8±0,29	1,7	33±0,35	1,0

**Eslatma: \*P>0,95; \*\*\*P>0,999;**

Tahlillarga ko'ra biologik faol qo'shimcha barcha tajriba guruhi jo'jalarning umumiy salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Qonda gemoglobin va eritrotsitlar

miqdori oshdi. Gematokrit va trombotsitlar me'yorida ushlab turildi. Immun tizimi mustahkamlanib, jo'jalarning turli infeksiyalarga qarshi chidamliligi ortdi. Jo'jalarning umumiy sog'ligini mustahkamlab, kasalliklar xavfini kamaytirdi va antibiotiklarga bo'lgan ehtiyojni qisqartirdi.

Dissertatsiyaning «BAVMENZAYM» biologik faol qo'shimchasini broyler jo'ja go'sht mahsuldorligiga ta'siri va broyler jo'jalarni nazorat so'yim natijalari" deb nomlangan bo'limida broyler jo'jalari go'sht mahsuldorligi va so'yim chiqimi, o'rganilgan. 4-jadavlda nazorat so'yim natijalari ko'rsatilgan.

#### 4-jadval

### Har bir oziqlantirish bosqichlari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar yakunida broyler jo'jalarida nazorat so'yim natijalari

Davrlar	I tajriba				II tajriba				III tajriba			
	nazorat (n=5) X±S $\bar{x}$	Cv %	tajriba (n=5) X±S $\bar{x}$	Cv %	nazorat (n=5) X±S $\bar{x}$	Cv %	tajriba (n=5) X±S $\bar{x}$	Cv %	nazorat (n=5) X±S $\bar{x}$	Cv %	tajriba (n=5) X±S $\bar{x}$	Cv %
Ko'rsat- kichlar												
So'yim oldi tirik vazni, g	2208,8 ±28,6	2,59	2339±4,96 ***	0,42	2230 ±15,4	1,38	2517,8±22,2 ***	1,76	2247±1,35	0,12	2317±1,04***	0,09
Yarim tozalangan tana, vazni, g	2042 ±25,9	2,53	2163±5,7***	0,52	2051,2±17	1,66	2337,8±17,4 ***	1,49	2072,8±3,87	0,37	2147,2±2,76 ***	0,25
Yarim tozalangan go'sht so'yim chiqimi, %	92,4		92,5		91,9		92,8		92,1		92,7	
Ichki organlari, g	187 ±2,31	11,4	194,2 ±2,35*	2,42	190 ±3,06	3,22	193,4 ±2,44	2,52	228,6±9,45	8,26	200±4,25	4,2
Tozalangan tana vazni, g	1855 ±23,8	2,57	1968±11,3 ***	0,57	1861,2±16,7	1,79	2157,8±13,5 ***	1,25	1844,2±12,5	1,36	1947,2±5,09 ***	0,52
Tozalangan go'sht bo'yicha chiqim, %	83,9		84,2		83,3		85,7		81,8		84,3	

**Eslatma: \*P>0,95; \*\*\* P>0,999**

Jadvalda 35 kunlik broyler jo'jalarini go'sht so'yim chiqim natijalari o'rganildi. «Start» bosqichida nazorat guruhi jo'jalari o'rtacha 2208,8 g vaznga ega bo'ldi. Tajriba guruhi jo'jalari esa 2339 g (P>0,999) ga yetdi, ya'ni 130,2 gramm farq kuzatildi. «Rost» bosqichida nazorat guruhi 2230 g, tajriba guruhida esa 2517,8 g (P>0,999) tirik vazn bo'lib, tajriba guruhi nazorat guruhidan deyarli 287,8 g og'irroq bo'ldi. «Finish» bosqichida nazorat guruhi 2247 g, tajriba guruhi 2317 g (P>0,999) vaznga ega bo'ldi va tajriba guruhi jo'jalari yakuniy natijada nazorat guruhidan 70 g og'irroq bo'ldi. Yarim tozalangan tana vazni va so'yim chiqimi. So'yishdan keyin jo'jalarning yarim tozalangan tana vazni ham nazorat guruhiga qaraganda tajriba guruhida ancha yuqori bo'lgan. «Start» bosqichida nazorat guruhi 2042 g, tajriba guruhi 2163 g (P>0,999), «Rost» bosqichida nazorat guruhi 2051,2 g, tajriba guruhi 2337,8 g (P>0,999), «Finish» bosqichida nazorat guruhi 2072,2 g, tajriba guruhi esa 2147,8 g (P>0,999) vaznga ega bo'ldi. So'yishdan keyin jo'jalarning tozalangan tana vazni ham biologik faol qo'shimcha ta'sirida ortgani aniqlandi. «Start» bosqichida nazorat guruhi 1855 g, tajriba guruhi esa 1968 g (P>0,999) massaga ega bo'ldi.

«Rost» bosqichida nazorat guruhi 1861,2 g massaga ega bo'lsa, tajriba guruhi 2157,8 (P>0,999) g massaga ega ekanligini ko'rsatdi. «Finish» bosqichida nazorat guruhi 1844,2 g toza vaznga, tajriba guruhi esa 1947,2 g (P>0,999) toza vaznga egaligi ko'rildi. Go'sht chiqimi bo'yicha ham natijalar yaxshilangan. «Start» bosqichida nazorat guruhida 83,9 %, tajriba guruhida 84,2 % bo'ldi. «Rost» bosqichida nazorat guruhida 83,3 %, tajriba guruhida esa 85,7 % bo'lgan. «Finish» bosqichida nazorat guruhida 81,8 %, tajriba guruhida bo'lsa 84,3 % go'sht chiqimini chiqqanligini ko'rsatdi.

